

Majburiy fan. Ona tili. Variant-12

1. Gap bo'laklari va gaplarni tobelantirib bog'lovchi, ular orasidagi shart ma'nosini ifodalovchi bog'lovchini toping.

- A) ya'ni B) negaki
C) garchi D) balki

2. chog'li, bo'ylab, kabi ko'makchilar qaysi kelishik shaklidagi so'zlarga qo'shiladi?

- A) bosh kelishigidagi
B) qaratqich kelishigidagi
C) jo'nalish kelishigidagi
D) chiqish kelishigidagi

3. Qiy-chuv bilan ularni yengib bo'lmaydi.

Ushbu gapda qaysi ikkinchi darajali gap bo'lagi qatnashgan?

- A) faqat to'ldiruvchi
B) hol va to'ldiruvchi
C) aniqlovchi va hol
D) aniqlovchi va to'ldiruvchi

4. Gap qatnashgan qatorni toping.

- A) chiroyli gul B) muhandis akam
C) g'azalni yodlash D) gul chiroyli

5. "gap markazida bo'lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi"

Bu ta'rif qaysi bo'lakka tegishli?

- A) ega B) kesim
C) ega va kesim D) aniqlovchi

6. Qaysi qatordagi gapda hozirgi zamon shaklining yozma nutq uslubiga xos shakli qo'llangan?

- A) O'qishlar boshlanib, o'quvchilar ham maktabga kelyapti.
B) Dalaga suv chiqaraman, ekinlar gurkirab, yashnab ketadi.
C) Istiqloq tufayli chekka qishloqlarda ham havaslansa arzigulik korxonalar yaratildi.
D) Anjuman yuzasidan tavsiyanomalar ishlab chiqilib, ishtirokchilarga tarqatilmoqda.

7. *It tumshug'ini suqqani bilan daryo harom bo'lib qolmaydi, nomard tosh otgani bilan tog' qulab tushmaydi.* Ushbu gapda qo'llangan so'zlarning nechitasi fonetik hodisaga uchragan?

- A) 1 ta so'zda
B) 2 ta so'zda
C) 3 ta so'zda
D) maqolda fonetik o'zgarishga uchragan so'z berilmagan

8. Yo'q demang, aka. Biz ham tushunadigan odammiz. **Xafa qilmaymiz,** – Alimardonning o'ylanib turganini

o'zicha tushundi.

Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan birlikning shaxs-soni haqida ifodalangan to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) I shaxs ko'plik shakli I shaxs birlik ma'nosida
B) I shaxs ko'plik shakli II shaxs birlik ma'nosida
C) I shaxs ko'plik shakli II shaxs ko'plik ma'nosida
D) I shaxs ko'plik shakli III shaxs birlik ma'nosida

9. Qaysi qatorda berilgan gap yig'iq gap emas?

- A) Barpo etilmoqda.
B) Havas qilmoqda.
C) Dovrug'i oshdi.
D) Barchasi yig'iq gap.

10. Rejani yana qaytadan ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Ushbu gap...

- A) shaxsi umumlashgan gap
B) shaxsi noma'lum gap
C) shaxsi ma'lum gap
D) atov gap

11. Qaysi qatordagi gapda qo'llangan antonim (zid ma'noli) so'zlar ravish so'z turkumiga oid?

- A) Yaxshi so'z – jon ozig'i, yomon so'z – bosh qozig'i
B) Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.
C) Oz so'zla, ko'p tingla.
D) Eskisiz yangi bo'lmas, yomonsiz yaxshi

12. Qaysi qatorda berilgan antroponimlar tug'ilgan kun ma'nosi bilan bog'liq tushunchani ifodalaydi?

- A) Xoldor, Anor, Qovoqvoy
B) Baxtiyor, Umid, Go'zal
C) O'roqvoy, Teshavoy
D) Odina, Jumavoy

13. Qaysi qatorda neytral leksikaga mansub so'zlar berilgan?

- A) bug'doy B) takya
C) volidayi muhtarama D) shoti

14. Qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlar bu...?

- A) argolar B) jargonlar
C) dialektizmlar D) A, B, C

15. Orttirma darajadagi yasama sifat qo'llangan gapni aniqlang?

- A) Insonning hayot yo'li g'oyat murakkab
B) Hamma yoq top-toza.
C) Ular uchun eng bexatar yo'l Toshkent edi.
D) Ko'm-ko'kosmonda suzib yurgan paxtadek yumshoq bulutlar yonayotgandek lovullardi.